



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 08 | pp. 15-23 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION STRATEGIYALARI ASOSIDA BARQARORLIGINI OSHIRISH



Kadirov Abdumalik Matkarimovich,

Farg'ona davlat texnika universiteti

Email: abdumalikkadirov84@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiy barqarorlikni oshirish, iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning ilg'or mamlakatlar tajribasi asosida barqaror rivojlanish muammolarini hal qilish hamda sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini baholashga nazariy yondoshuvlar asosida sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligining hozirgi holati, barqarorlik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi ishchi, tashqi omillar, shuningdek, sanoat korxonalari iqtisodiy barqaror faoliyatini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: barqarorlik, itisodiy barqarorlik, inqirozlar, strategik rivojlanish, raqobat, tashqi muhit, strategiya, moliyaviy yostiqcha, moliyaviy jamg'arma, boshqaruv, tashkiliy tuzilma.

Abstract. This article discusses the current state of economic stability of industrial enterprises, internal and external factors affecting stability indicators, as well as organizational and economic mechanisms for ensuring the economically stable operation of industrial enterprises, based on theoretical approaches to solving sustainable development problems based on the experience of advanced countries in ensuring economic stability, and assessing the economic stability of industrial enterprises.

Keywords: stability, economic stability, crises, strategic development, competition, external environment, strategy, financial cushion, financial fund, management, organizational structure.

Аннотация. В статье рассматриваются современное состояние экономической устойчивости промышленных предприятий, внутренние и внешние факторы, влияющие на показатели устойчивости, а также организационно-экономические механизмы обеспечения экономически стабильной работы промышленных предприятий на основе теоретических подходов к решению проблем устойчивого развития, основанных на опыте передовых стран в обеспечении экономической устойчивости, и оценка экономической устойчивости промышленных предприятий.

Ключевые слова: устойчивость, экономическая устойчивость, кризисы, стратегическое развитие, конкуренция, внешняя среда, стратегия, финансовая подушка, финансовый фонд, управление, организационная структура.

Kirish. Zamonaviy dunyoda global siyosiy va iqtisodiy xavf-xatarlar sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning ochiqligi va milliy manfaatlarni himoya qilish o'rtasidagi optimal muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning turli tarmoqlari va ijtimoiy tizimlardagi mamlakatlar bo'yicha xavf darajasini qiyosiy baholash uchun xalqaro

reytinglar qo'llaniladi. Oldingi bobda iqtisodiy barqarorlik holatidagi o'zgarishlarning mumkin bo'lgan ko'rsatkichlari ko'rsatilgan yedi. Biroq, turli mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlik darajasini aniqlash mezonlari va uslubiy yondashuvlar to'plami har xil bo'lishi mumkin, bu yesa mamlakatlar o'rtasidagi taqqoslashni murakkablashtiradi.

Hozirgi vaqtda mamlakatlar uchun taqqoslanadigan xalqaro iqtisodiy barqarorlik indeksi ishlab chiqilmagan. Biroq, zamonaviy sharoitda milliy iqtisodiy barqarorlikning tarkibiy qismlarini baholash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan xalqaro tashkilotlarning individual indeksleri iqtisodiy rivojlanish potentsialini va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni mamlakatlararo taqqoslash uchun keng qo'llaniladi.

Sanoat barcha iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirishga xizmat qiladi. Keyingi yillarda bu soha rivojiga alohida e'tibor qaratilib, yuqori texnologiyali zavodlar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishni rivojlantirish maqsadida 2024-yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-295-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish, korxonalarining mavjud muammolarini tezkorlik bilan hal etish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining sanoat tarmoqlari bilan ishlash samaradorligini yanada oshirish, mamlakatda yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat yo'nalishlarini jadal rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hisobidan aholi daromadlarini oshirish hamda yirik tarmoqlarga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish, hududlarning tabiiy xom ashyo, mehnat resurslarini va «nisbiy ustunliklarini» inobatga olgan holda sanoatni rivojlantirishga turtki beradigan yo'nalishlarni belgilash va ularning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, sanoatning bazaviy tarmoqlari, jumladan neft-gaz, energetika, kimyo, tog'-kon, mashinasozlik sanoatini rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish, diversifikatsiya qilish hamda ularni isloh qilish strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqish, resurslarning tarmoqlararo va hududlar bo'yicha mutanosib ravishda taqsimlanishini hamda infratuzilmaning o'zaro muvozanatlashgan rivojlanishini ta'minlash vazifalari belgilangan.

O'z navbatida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar evaziga mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirish, ichki bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlarini yaratish barobarida aholi daromadlarini ko'paytirish va turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash vazifalarini umumiy ko'rinishda quyidagicha ajratish mumkin:

zamonaviy va ilg'or texnologiyalarni joriy qilish yordamida strategik muhim tarmoqlarning texnik va texnologik qoloqligini minimallashtirish;

uzoq muddatli modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga qodir investitsiya muhitini shakllantirish;

tarmoqlar o'rtasida raqobatni kuchaytirishga asos bo'luvchi iqtisodiyotning tashkiliy-funksional boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish;

kooperatsiya birjalari va innovatsion yarmarkalarni tashkil etish orqali sanoat tarmoqlarida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarini yanada jadallashtirish;

ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) va amaliy tadqiqotlarni buyurtma va grant shaklida davlat tomonidan qo'llabquvvatlashni takomillashtirish va boshqalar.

Har bir mahalliy korxonaning iqtisodiy barqarorligi davlatning butun iqtisodiy tizimining rivojlanish tendensiyalarini saqlab qolish, uning sifat jihatidan yuksalishini ta'minlashning kalitidir, bu esa ushbu muammoni hal qilishni dolzarb qiladi. Shunday ekan, har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ekt oldidagi muhim vazifa qisqa va uzoq muddatda o'zining barqarorligini ta'minlashdan iborat. Korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, unga salbiy tashqi va ichki omillar ta'sirini minimallashtirish, korxonaning umumiy barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy barqarorlikning rolini aniqlash korxonalarning iqtisodiy barqarorligini boshqarishda takomillashtirilgan strategik yondashuvlardan foydalanishni talab qiladigan muammolardir.


Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ma'lumki, iqtisodiy barqarorlik, barqarorlikni baholashni ham statik (hisobot davri uchun) ham dinamik ko'rsatkichlar (o'sish sur'ati, absolyut o'sish va boshqalar) asosida amalga oshirish mumkin. Shu o'rinda, korxona iqtisodiy barqarorligining u yoki bu jihatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni taklif etgan M.N. Kozin [4], S.Yu. Pleshkov [5], G.R. Yarullina [9] ilmiy ishlariga nazar solish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda, o'zbek olimlari [13],[14] sanoat barqarorligini ta'minlashda asosiy urg'uni moliya jihatlariga qaratishgan. Korxonalarning iqtisodiy barqarorligini dinamik me'yorlar asosida hisob-kitob qilish va baholash usullari birinchilardan bo'lib, iqtisodchi-olim I.M.Siroejin tomonidan amalga oshirilgan keyinchalik R.L.Jambekova, N.A.Savinskaya ilmiy tadqiqotlari va boshqalarda takomillashtirilgan. Har qanday faoliyatning ma'lum bir iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi bilan aks ettirish imkoni bor, bunda o'zaro uyg'unlik va bog'liqlik korxonaning bir holatdan boshqasiga o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Barcha ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi "ish tartibi" tushunchasi bilan tavsiflanadi. Korxonaning har bir ish tartibi belgilangan ko'rsatkichlar tizimini izohlaydi, ularni o'sish sur'ati bo'yicha tasniflansa korxonaning me'yoriy ish tartibi, boshqacha qilib aytganda ko'rsatkichlarning me'yoriy tizimi (dinamik me'yor) yuzaga keladi. O'zoq vaqt davomida bunday dinamik (qatorni) o'sishni ushlab turish korxonaning optimal tartibda ishlashiga imkon beradi. Korxonani baholash korxonaning haqiqiy dinamik qatorini me'yoriy qator bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda barqaror rivojlanish mexanizmini to'g'ri tanlanganligi juda muhimdir, chunki tadqiqot metodologiyasi har qanday tadqiqotda doimo asosiy o'rinni egallaydi. Noto'g'ri tanlangan tadqiqot metodologiyasi butun ishga zarar etkazishi va tadqiqot jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Sanoat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishni ta'minlash butun dunyo mamlakatlari rivojlanishining asosiy strategiyalaridan biri hisoblanadi. Bu mexanizmlar barqarorlikka erishish uchun katta miqdorda energiya sarfini talab qiladigan jarayondir. Tashqi iqtisodiy sharoitlarning yuqori dinamikasi korxona barqarorligi va muvozanatiga qaratilgan iqtisodiy barqarorlikni boshqarish jarayonini cheklaydi va murakkablashtiradi. Korxonaning

iqtisodiy barqarorligini ta'minlash samarali boshqaruv tizimini barpo etish, ilmiy asoslangan yondashuvlar, tamoyillar va usullarga asoslangan samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodchi olim Zarova Ye.V. tomonidan taklif yetilgan mezo va makro darajada iqtisodiy barqarorlikni baholash uslubini korib chiqamiz hamda yangi qonuniyatlarni aynqlashga harakat qilamiz.

Ustuvor xalqaro reytinglar mezonlari va ko'rsatkichlari Milliy monitoring tizimining ajralmas qismi hisoblanadi (1-jadval). Ushbu reytinglarning aksariyati (1-4, 7, 10, 13 va 15) iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari yoki boshqa ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqilgan, ammo bu ko'rsatkichlar bilan chambarchas bog'liq. So'ngra, mavjud innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish uchun korxonalarda joriy etilgan va joriy etilishi kutilayotgan innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholanadi va uni bo'yicha oshirish chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Keyingi bosqichda, innovatsiya sig'imi va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni o'z ichiga olgan dastlabki innovatsion-investitsion portfelni shakllantiriladi va nihoyat to'rtinchi bosqichda uglevodorod xom ashyosini qazib olish va qayta ishlash sanoati korxonalariga innovatsiyani joriy qilish hajmini baholash va bunda har bir innovatsion texnologiya uchun talab etiladigan mablag'lar va uglevodorod xom-ashyosi zahirasi hajmi aniqlanadi.



1-rasm. Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bosqichlari.

Investitsion portfelni shakllantirishda asosiy mezon bu chegaralangan hajmdagi investitsiya asosida yuqori hajmda xom-ashyolarni qazib olish va qayta ishlash taklif etiladi. Shu nuqtai nazardan, investitsiya rejalari yuqori hajmda xom-ashyolarini qazib olish va qayta ishlash jarayonlariga joriy qilinadigan innovatsion texnologiyalar uchun kiritiladigan investitsiya hajmiga asoslanadi. Shu o'rinda sanoat korxonalarida

innovatsion jarayonlar tezligini belgilab beruvchi asosiy omil bu tarmoqning kapital sig'imi darajasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, milliy kredit tizimi va uni amalga oshiruvchi moliyaviy infratuzilmalar rivojlanishi ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatini belgilovchi ikkinchi omil korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va assortimenti hisoblanadi. Agar korxona asosan ohirgi iste'molchilar uchun tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarish bilan faoliyat yuritrsa, bu holatda rivojlanish jarayoni standart, tabaqalashmagan mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tarmoqlarga nisbatan tezroq va muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Shunday qilib, kelgusida qayta ishlash uchun standart xom-ashyo va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kapital sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarda innovatsion faollik oshirish mexanizmlari ishlab chiqish lozim degan xulosaga kelish mumkin. Bunday tarmoqlar tarkibiga asosan samaradorlik innovatsiya sig'imi yuqori bo'lgan xom-ashyoni qazib olish hamda chuqur qayta ishlash, metallurigiya va mashinasozlik kabi bir qator tarmoqlarini kiritish mumkin. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlari ommalashib borishiga qaramasdan bizning fikrimizcha, rivojlangan davlatlarda keng foydalaniladigan kapital sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarda integratsiyadan sinergetik samara olishga yo'naltirilgan klassik sanoat siyosati samarali hisoblanadi.

Bunday sharoitda tarmoqlarda texnologik innovatsiyaning murakkab bo'lishi davlat tomonidan ustuvor yo'nalishlarga investitsiyalarni kiritish, infratuzilmalari, transport-logistika markazlarini yaratish, tadqiqot konsorsiumlarni tashkil qilish, yirik integratsiyalashgan birlashmalar o'rtasidagi raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash shaklida sanoat siyosatini olib borilishini talab etadi.

Shu o'rinda sanoati tarmog'i O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu uchun davlat ushbu tarmoq rivojlanishida o'z ta'sirini saqlab qolishga harakat qiladi. Xususan, ushbu ta'sir korxonalar mulkida davlatning to'g'ridan-to'g'ri ulushini oshirish shuningdek, soliq, litsenziyalash va tashkiliy mexanizm hamda vositalari shaklida bo'lishi mumkin (2-rasm).

Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda asosiy ustuvorlik uzoq muddatda xom ashyolarni qazib olish va qayta ishlash sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilishi maqsadga muvofiq va bunda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- mamlakat yoqilg'i-energetika havfsizligini ta'minlash;
- xom ashyolarni qazib olish va qayta ishlash sanoati korxonalarini xom-ashyosi resurslaridan oqilona foydalanish va innovatsion rivojlanish tizimiga o'tishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni shakllantirish;
- O'zbekiston hududida, qo'shni mamlakatlar va boshqa mamlakatlarda sanoat xom ashyolarni qazib olish va qayta ishlash sanoati korxonalari iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish tizimini shakllantirish;
- xom ashyolarni qazib olish va qayta ishlash sanoati korxonalari daromadini oqilona va samarali taqsimlash ustidan nazoratni kuchaytirish va doimiy monitoring qilish tizimini yaratish.

Qazib olish va qayta ishlash sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy mexanizmlari va vositalari quyidagilardan iborat:

- soliq mexanizmlari (soliqqa tortishni tabaqalashtirish, foydali qazilmalarni


qazib olish uchun soliq stavkalari koeffitsientini pasaytirish, imtiyozli eksport bojlari va soliq ta'tillarini qo'llash);

– litsenziyalash mexanizmlari (xorijiy investorlar uchun qazilma boyliklar va konlarning strategik zahiralari bo'yicha ob'ektlar ro'yhatini olishga ruxsatni cheklash va boshqalar);

– tashkiliy mexanizmlar (mahsulotni taqsimlash bo'yicha bitimdan foydalanish, davlat-xususiy sheriklik tizimi, konsorsiumlar, maxsus davlatning tadbirkorlik tuzilmalarini shakllantirish);

– moliya mexanizmlari (davlat investitsiyalari va subsidiyalari);

– rejalashtirish va prognoz qilish (maqsadli dasturlar, milliy loyihalar, energetika va iqtisodiy-ijtimoiy strategiyalar).



2-rasm. Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlantirish strategiyasi tasnifi

Yuqorida keltirilgan sanoat korxonalarining innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy vazifalari va mexanizmlaridan kelib chiqqan holda innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish zarurati ichki va tashqi sarmoyalar bozoridagi raqobatning keskinlashuvi natijasida investorlar tomonidan quyilayotgan talabning qiyinlashishi, bozorlaridagi integratsiyalashuv va globallashuv jarayonining keskinlashishi, zamonaviy axborot texnologiyalardan keng foydalanish kabi omillar ta'siridan kelib chiqib, korxona hamda mahsulot raqobatbardoshligi darajasini oshirish bilan bevosita bog'liq.

Bunday sharoitda sanoatning raqobat afzalliklaridan samarali foydalanish zarur. Sanoat tarmog'ining raqobat afzalliklaridan innovatsiyalar, doimiy yangilanishga sharoit yaratish, zamonaviy menejmentni joriy qilish, diversifikatsiyalashgan va integratsiyalashgan xolding korxonalarini shakllantirish, axborot texnologiyalari va avtomatlashgan boshqaruv tizimi asosida shakllanadi.

Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalarining innovatsion rivojlantirish hududlarning innovatsion resurslari, investitsiya va moddiy-texnik jarayonlarning yuqori darajada boshqarish imkonini beruvchi ilmiy-texnik va ishlab chiqarish salohiyatidan sifat jihatdan samarali foydalanishni talab etadi.

Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati quyidagi omillardan kelib chiqqan:

- xom-ashyo bazasi tarkibi va sifatining yomonlashishi;
 - jahon energiya resurslari bozorlaridagi raqobatning keskinlashuvi
- O'zbekistonning ushbu bozorlarga jadal integratsiyalashib borayotgan bir vaqtda sanoat korxonalarining tashqi bozorlardagi mavqeini saqlab qolish va ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash zaruratini yanada oshiradi;
- sanoat tarmoqlarida raqobat afzalliklaridan oqilona va samarali foydalanish zarurati;
 - sanoat tarmog'ini davlat tomonidan tartibga solishning oqilona tizimi va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan omillardan kelib chiqqan holda, sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasini ishlab chiqishda xom-ashyoslarni qazib olish bo'g'ini bo'yicha quyidagilarga asosiy e'tibor qaratilmog'i lozim:

- yuqori rentabelli konlar hududida yangi sanoatqazib olish klasterlarini shakllantirish;
- xom-ashyolari konlari, shuningdek noan'anaviy resurslarni qidirish bo'yicha innovatsion texnologiyalarini joriy qilish;
- mavjud xom-ashyo qazib olish samaradorligini oshirish bo'yicha innovatsion texnika va texnologiyalarini joriy qilish;
- sanoat tamroqlari samaradorligini oshiruvchi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish va rivojlantirish.

Sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasini ishlab chiqishda qaytash ishlash bo'g'ini bo'yicha quyidagilarga asosiy e'tibor qartish maqsadga muvofiq:

- qayta ishlash koronalarida xom-ashyo mahsulotlaridan oqilona foydalanishga

yo'naltirilgan chuqur qayta ishlash quvvatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida yuqori sifatli massulot ishlar chiqaruvchilar uchun davlat byudjetiga to'lovlar tizimini qayta ko'rib chiqish;

- O'zbekistonning jahon energiya resurslari bozoriga jadal integratsiyalashib borayotganini inobatga olgan holda hududiy sanoat mahsulotlari bozorlaridagi raqobat muhitini shakllantirish;

- istiqbolda jahon standartlari darajasida eksportbop sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil qilish;

- qayta ishlash samaradorligini oshirish maqsadida ushbu jarayonlarga innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy qilish;

- mavjud xom-ashyoni qayta ishlovchi korxonalarni bosqichma-bosqich modernizatsiya va texnologik jihatdan qurollantirish;

- sanoat mahsulotlari bozorida texnik reglamentga amal qilmayotgan va uni buzayotgan sub'ektlar ma'suliyatini yanada oshirish;

- sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kontrolling tizimidan keng foydalanish lozim.

Mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish - bu hisobot davridagi xalq xo'jaligi rezident bo'linmalarining ishlab chiqarish faoliyati natijasida hosil bo'lgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Oraliq iste'mol - ishlab chiqarish jarayonida o'zgartiriladigan yoki to'liq iste'mol qilinadigan tovarlar va xizmatlar qiymati.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, kimyo sanoati iqtisodiy barqarorligini qisqa davrda (2021-2022 yillarda) oylik statistik ma'lumotlarini tahlil qilinganda unga iqtisodiy faol aholi (X_1), ish bilan band aholi (X_2) hamda sanoatda o'rtacha hisoblangan oylik ish haqi (X_3) o'rtasidagi bog'lanishlar statistik ahamiyatli yemas. Demak, bu yerda yana boshqa omillarni hmi chuqur o'rganilishi zarur, shu sababli sanoat iqtisodiy barqarorligiga ta'sir yetuvchi yekzogen omillarni uzun davrda kengroq o'rganamiz. Xulosa qilish mumkinki olingan regressiya modeli qisqa muddat uchun ahamiyatli chiqmadi, demak sabab-oqibat qonuniyatlari chuqurroq tadqiq etilishi lozim.

Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasini amaliyotga tadbiiq etish istiqbolda mamlakat sanoatini barqaror rivojlanishiga olib keladi va shu bilan bir qatorda sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligi ta'minlanadi, pirovardida mamlakat byudjeti daromadlari va valyuta tushumlarini keskin oshishiga, shuningdek hududlarda zamonaviy sanoat korxonalari qurish hisobiga qo'shilgan qiymat yaratish va yangi ish o'rinlarini tashkil etish orqali aholi turmush farovonligini yuksalishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bakanov M.I., Sheremet A.D. Teoriya ekonomicheskogo analiza. M.: Finansy i statistika, 2018. 521 s
2. Karpchenko Yu.V. Metody formirovaniya finansovoy politiki predpriyatiya // Ekonomika i sotsium. 2018. № 11 (54). S. 485–490.
3. Kozin M.N. Dinamicheskaya model otsenki proizvodstvenno-ekonomicheskoy ustoychivosti oboronogo predpriyatiya / M.N. Kozin // Audit i finansovyy analiz. – Moskva, 2017. - №4. – s. 24-31.

4. Pleshkov S.Yu. Razrabotka mexanizma povysheniya urovnya ekonomicheskoy ustoychivosti deyatelnosti stroitelnogo predpriyatiya / S.Yu. Pleshkov.: Avtoref. dis. ... kand. ekon. nauk. - Yekaterinburg, 2018. – s. 18.
5. Shaxgiraev I.U., Saidov A.A. Strategicheskoe upravlenie kak mexanizm obespecheniya finansovo-ekonomicheskoy ustoychivosti predpriyatiya. Industrialnaya ekonomika. Nauchno-prakticheskiy jurnal № 2, tom 1, 2022. 50-56 S
6. Financing Sustainable Development: The Role of Sovereign Wealth Funds for Green Investment. Geneva, UNEP, 2017. p. 4.
7. Global Trends in Renewable Yenergy Investment 2020, Frankfurt School-UNEP Centre/BNEF. 2020
8. Global Yeconomic Barometers. KOF Swiss Yeconomic Institute. <https://kof.ethz.ch/en/forecasts-and-indicators/indicators/kof-globalbaro.html>
9. Adams JS, Victurine R (2011) Permanent conservation trusts: a study of the long-term benefits of conservation yendowments. Conservation Trust Funds, Avato P, Coony J (2008) Accelerating clean yenergy technology research, development, and deployment. World Bank, Washington, DC,
10. Yarullina, G.R. Dinamicheskaya model monitoringa ustoychivogo yekonomicheskogo razvitiya promyshlennogo predpriyatiya / G. R. Yarullina // Audit i finansovyy analiz. - 2018. - № 6. – s.195-202
11. Sheremet A.D. Metodika finansovogo analiza. M.: INFRMA–M., 2017. 367 s
12. Bell LA, Freeman RB (2001) The incentive for working hard: yexplaining hours worked: differences in the US and Germany. Labour Yecon 8:181–202,
13. Brown LR (2011) The new geopolitics of food. Foreign policy. The FP Group, Washington, DC,
14. Costanza R, Farley J (2010) What should be done with the revenues from a carbon cap and auction systems? Solutions 1:33, Coy P (2012) The other U.S. yenergy crisis: lack of R&D: R&D neglect is holding back innovative yenergy technologies. Bloomberg Businessweek. New York: Bloomberg L.P, Daly HE (2008)

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

